

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI



ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI

Samarqand shahri, 2025-yil, 16-oktabr

Samarqand – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI

Samarqand shahri, 2025-yil, 16-oktabr

Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand: SamDCHTI nashri, 2025. – 248 bet.

Ushbu to‘plamdan “Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilarining maqolalari o‘rin olgan bo‘lib, undan barcha tilshunos, adabiyotshunos va pedagoglar foydalanishi mumkin.

Tahrir hay’ati:

Professor v.b.B.A.Xolikov	rais
Professor O.G‘aybullayev	rais o‘rinbosari
Professor Sh.S.Safarov	a‘zo
Professor T.A. Bushuy	a‘zo
Professor X.Z.Xayrullayev	a‘zo
Professor A.M.Turobov	a‘zo
Dotsent B.Turniyozov	a‘zo
Dotsent Sh.N.Turniyazova	mas‘ul muharrir
Dotsent M.A.Xalova	mas‘ul kotib

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas‘ul.

gastronomik terminlar asosan qo'shma so'zlar, affiksatsiya va hanja asosidagi birliklar orqali hosil bo'lishi aniqlanadi.

Qo'shma so'zlar ovqat tarkibi va asosiy ingredientlarni ifodalashda keng qo'llansa, affiksatsiya pishirish usullarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Hanja asosidagi terminlar esa ko'proq ilmiy va rasmiy nutqda uchraydi hamda gastronomik jarayonlarning umumiy tushunchalarini ifodalaydi.

Shunday qilib, koreys gastronomik terminologiyasi til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etadi. Bu terminlar nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki koreys xalqining milliy oshxona madaniyatini aks ettiruvchi muhim madaniy fenomen sifatida ham qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 김광해. 한국어 어휘 교육론. 서울: 박이정, 2010.
2. 김부연. 한국 음식 문화. 서울: 백산출판사, 2015.
3. 장지현. 한국 음식 문화사. 서울: 교문사, 2012.
4. 김상보. 한국 식생활 문화 연구. 서울: 신광출판사, 2014.
5. 배재학. 한국 음식 문화의 이해. 서울: 백산출판사, 2016.
6. 정대성. 한국어 어휘와 문화. 서울: 역락, 2013.

Azizova Dildora

Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0005-7104-8604>
dildoraazizova1213@gmail.com

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilshunosligida murakkab qo'shma gaplarning (compound-complex sentences) lingvistik tavsifi hamda sintaktik qurilmalarning derivatsiyasi va transformatsiyasi masalalari tahlil qilinadi. Muallif nutqiy hosilalarning (derivatlarning) shakllanishi so'zlovchining grammatik bilimiga emas, balki nutq muhiti, tinglovchi omili, ko'zlangan semantika, stimul va kutilayotgan reaksiya bilan bog'liq ijtimoiy-kommunikativ faktorlarga tayanishini asoslaydi. N.Chomskiyning jumla tuzilishi qoidalari, transformatsiya va rekursiya haqidagi qarashlari, G.Leech va J.Svartvikning kommunikativ grammatikasi, R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech va J.Svartvikning "A Comprehensive Grammar of the English Language" asaridagi funksional gap tuzilmalari nazariyasi, R.Huddleston va G.K.Pullumning parataksis hamda gipotaksisni farqlashga oid mulohazalari, B.Aartsning teng bog'lanish (coordination) talqini va M.A.K.Hallidayning funksional grammatikasi qiyosiy-tanqidiy yo'sinda o'rganiladi. Qo'shma gaplar komponentlarining munosabatiga ko'ra teng komponentli, murakkab tuzilishli va aralash tiplarga ajratiladi; ingliz va o'zbek tillaridagi uch va undan ortiq teng bog'langan sodda sintaktik qurilmalardan hosil bo'lgan murakkab qo'shma gaplarning tarkibiy-semantik mutanosibliklari, bog'lovchi vositalar va tinish belgilarining qo'llanishidagi o'ziga xosliklar ko'rsatiladi. Xulosada ingliz tilshunoslarining qo'shma gap komponentlarini bog'lashda prosodik va punktuatsion belgilarni o'zaro yetarli darajada farqlamagani, xususan, nuqtali vergul kabi tinish belgilarini bog'lovchi vositalar sirasiga kiritishi izohtalab masala sifatida qayd etiladi.

Kalit soʻzlar: murakkab qoʻshma gap, qoʻshma gap, sintaktik derivatsiya, transformatsiya, teng bogʻlanish (coordination), tobe-hokim aloqa (subordination), parataksis, gipotaksis, rekursiya, jumla tuzilishi qoidalari, funksional grammatika, murakkab sintaktik qurilma, bogʻlovchi vositalar, prosodik va punktuatsion belgilar, kommunikativ dominantlik, stimul va reaksiya, lisoniy shaxs, qiyosiy sintaksis.

Jahon tilshunosligida sintaktik qurilmalarning derivatsiyasi va transformatsiyasi oʻziga xos tavsiflariga ega. Albatta, fikr ifodasi til va nutqning pirovard natijasi yoki ularning mavjudligi mohiyatining asosini tashkil etishini nazarda tutgan holda, fikr ifodasi, uni oʻzida mujassam qilgan nutq birligi biror aniq sintaktikaga asoslanishi tabiiy. Busiz verbal muloqot amalga oshmaydi. Biroq, mazkur muloqotda soʻzlovchining muloqotdan kutayotgan oʻziga xos manfaatlari bor. Agar shunday manfaat mavjud emas ekan, nutq sodir boʻlmaydi. Nutqiy hosilalar (derivatlar nazarda tutilmoqda) har doim ham bir xil sintaktik qurilmalardan iborat boʻlavermasligi aniq. Buning boisi shuki, ushbu jarayonda soʻzlovchi tinglovchining, nutq muhitining va boshqa lingvistik va ekstralingvistik omillarning mazkur sintaktikaning qay tarzda shakllanishiga, koʻzlangan semantikani va moʻljallangan stimulni hamda kutilgan reaksiyani nazarda tutgan holda muloqotni amalga oshirish yoʻlini tanlashi bilan bogʻliqdir. Ana shundan kelib chiqqan holda nutqiy hosilalar (derivatlar) bir fikrning tinglovchiga yetkazilishidagi eng maqbul tarzda shakllanadi. Bu soʻzlovchining grammatik bilimiga bogʻliq emas. Chunki, soʻzlovchi grammatika ilmidan butkul bexabar boʻlishi ham mumkin, albatta. Biroq, ayni jarayon derivatsion jarayon ekani mutlaq haqiqatdir. Bu oʻrinda soʻzlovchining grammatik bilimlariga qariyb ehtiyoj sezilmaydi. Bunda soʻzlovchida shakllangan soʻzlash va nutq mahorati tabiiy holatda ijtimoiy faollashadi hamda kerakli vazifaning toʻla-toʻkis ado etilishiga asos boʻladi. Ushbu jarayonda hosil boʻlayotgan derivatning sodda sintaktik qurilma yoki murakkab sintaktik qurilma ekani shaklan masalaning qanday hal etilishidan tashqarida qoladi. Bunday hollarda soʻzlovchi oʻzining aniq maqsadi sari intilar ekan, u sodda sintaktik qurilma yoki murakkab sintaktik qurilmadan foydalanishni emas, balki oʻz fikri asosida tinglovchini yoki tinglovchilarni, xullas, oʻz nutqi kimga yoki kimlarga qaratilgan boʻlsa ularni oʻz fikri bilan oziqlantirish, ularni shu fikr qurshovida qamrab olish hamda pirovardida shu yoʻl orqali ularni boshqarishga harakat qiladi.

Mazkur mulohazalar shuni koʻrsatadiki, sintaktik qurilmaning derivatsiyasi bu, hech shubhasiz, ijtimoiy talablar asosidagi faktorlar asosida vujudga keladi.

N.Chomskiyning mulohazasiga koʻra, “*Yoki Jon aqlli, yoki u omadli*” kabi gaplar toʻliq gaplarning teng komponentlarining bogʻlangan holatini (coordination) ifodalaydi. Bunday qoʻshma gaplar jumla tuzilishi qoidalari (phrase structure rules) va transformatsion qoidalarga muvofiq hosil qilinadi¹. “*Jon baland boʻyli va Bill kalta*” kabi qoʻshma konstruksiyalar mustaqil gaplarning teng munosabatdagi bogʻlanishini ifodalovchi maxsus transformatsion qoidalarni talab qiladi².

Darhaqiqat, N.Chomskiy tomonidan bildirilgan yuqoridagi fikr, bir qaraganda, boshqa tilshunoslarning mazkur masaladagi qarashlaridan keskin farqlanmasligi mumkin. Biroq, N.Chomskiyning sintaktik qurilmaning transformatsiyasi xususidagi mulohazasi, bizningcha, alohida ahamiyatga molikdir. Chunki, har qanday semantika muayyan sintaktikani talab etadi. Shunday ekan, kommunikatsiya uchun semantika va unga mos keluvchi sintaktika eng muhim omil darajasida boʻlishi mumkin. Soʻzlovchi nutq vaziyati, nutq payti va nutqning boshqa ehtiyojlarining har biriga xos boʻlgan kommunikativ dominantlikdan kelib chiqqan holda, baʼzan maxsus, baʼzan odatiy tarzda ehtiyojga mos transformani tanlaydi. Bu esa, ayni oʻrinda, soʻzlovchi shaxsi va muloqotning boshqa omillar bilan uzviylik, izchillik kasb etuvchi sodda yoki murakkab sintaktik qurilmalarning muayyan semantikani mujassam etgan transformalarining shakllanishiga asos boʻladi.

G.Leech, J.Svartviklarning qoʻshma gap (compound sentence) –*and, but, yoki or* kabi bogʻlovchilar orqali bogʻlangan ikki yoki undan ortiq asosiy (mustaqil) gaplardan iborat boʻlishi,

¹Qarang: **Chomsky N.** *Syntactic Structures.*–The Hague: Mouton. 1957. – P. 38. (– 136 p.)

²Qarang: **Chomskiy N.** *Oʻsha asar.*– B. 41.

bunda har bir gap grammatik jihatdan mustaqil, lekin ma'nosiga ko'ra o'zaro aloqadorlikka asoslanishini ta'kidlab aytgan mulohazalari ma'lum ma'noda N.Chomskiyning yuqorida tahlil qilingan qarashlariga mushtarakdir. Shu bois, bog'langan qo'shma gaplarda muvofiqlik tenglikka tayanuvchi mohiyatni namoyon etadi. Mazkur jarayonda koordinatsiya fikrlarga tenglik maqomini berishning usuli sifatida zohir bo'ladi. Bog'langan qo'shma gaplarda bu ikki mustaqil gapni bir-biriga bo'ysundirmasdan bog'lash shakllangani o'z ifodasini topgan bo'ladi¹.

Darhaqiqat, qo'shma gap – bu ikki yoki undan ortiq mustaqil (teng) gaplarning, odatda: *and*, *or* yoki *but* kabi teng bog'lovchilar ishtirokidagi hosila qurilmadir². Shunday ekan, koordinatsiya–qo'shma gaplarda sintaktik jihatdan teng bo'lgan elementlarni bog'lashni anglatadi. Shu bois ham tobe-hokim aloqadan (subordination) farqli o'laroq, bunday sintaktik qurilmalarda komponentlarning o'zaro birining boshqasiga qaram emasligi sezilib turadi³. Qo'shma gaplar murakkab gaplardan farq qilishi xususida munosabat bildirilganida H.Rodney, K.P.Geoffreyklar murakkab gapda bir gap boshqasiga bog'liq bo'lishini, qo'shma gapda esa har bir gap mustaqil holda alohida gap sifatida ishlatilishi mumkinligini bayon etishgan⁴. Ko'rinadiki, H.Rodney, K.P.Geoffreyklarning keltirilgan mazkur qarashlari bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarni, boshqacha aytganda, *parataxis* va *gipotaksis*ni farqlash lozimligini ilgari suradi. Albatta, paraktaktik va gipotaktik munosabatlarning har ikkisida ham murakkab sintaktik qurilma mohiyati mujassam. Ammo, mazkur sintaktik bog'lanishlar natijasida derivatsion munosabatlarda o'zaro farqli aloqalarga tayanuvchi sintaktik qurilmalar shakllanishiga oid qimmatli mulohaza ushbu qarashlarda farqlanishi ijobiy ahamiyat kasb etishi namoyon bo'lmoqda.

Yuqorida qo'shma gap (compound sentence) ikki yoki undan ortiq gaplardan iboratligi xususidagi tavsif, shuningdek, ushbu gaplarning mustaqil ekani va har biri alohida gap sifatida ishlatilishi mumkinligi tilning sistem-struktur va qiyosiy paradigmalarda mezonlari asosida tadqiq etilgani bilan bog'liqlikdagi xulosalarga asoslangani shubhasizdir. Bunday qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar, odatda: *and* (va), *but* (lekin) yoki *or* (yoki) kabi teng bog'lovchilar yordamida bog'lanib, yaxlit bir sintaktik qurilmani shakllantiradi⁵. Bizningcha, B.Artsning sintaktik qarashlaridan olingan mazkur mulohazada paraktaktik munosabat talqini ustivorlik qiladi. Chunki, B.Artsning mulohazalarini dalillovchi asoslar teng bog'lovchilar ishtirokidagi qo'shma gaplar va ularning ishtirokida sodda gaplarning bog'lanishi orqali shakllangan qo'shma gaplar haqida bormoqda.

Ingliz tili grammatikasidagi nisbatan mukammal qarashlarni mujassam etgan **R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech, J.Svartviklar tomonidan 1985 yilda yaratilgan** "A Comprehensive Grammar of the English Language" nomli asar eng to'liq va akademik qarashlarni keng qamrab olgan manbalardan biri hisoblanadi. Kitobda *murakkab qo'shma gaplar (compound-complex sentences)* tushunchasi bevosita atama sifatida juda ko'p qayd etilmagan bo'lsa-da, ularni gaplarning **aloqadagi vazifasiga, ya'ni funksiyasiga muvofiq tuzilishi (functional sentence structures)** va shakllanishi haqidagi mulohazalar o'rin olganini qayd etish mumkin. Mazkur asarda bir necha mustaqil gaplarning birikuvidan, jumladan, o'zaro tobe-hokim munosabat asosida tarkib topgan (**clause combination**) **murakkab qo'shma gap** hosil qilinishi jarayoni ham tegishli mavzular doirasida tahlil qilingan⁶. Murakkab qo'shma gaplarning matnda namoyon bo'lishi har qanday nutqning, shu jumladan, yozma nutqning ham yuqori darajadagi belgilaridan biri bo'lib hisoblanishi mumkinligi, bunday gaplarning tarkibiy komponentlarining orasidagi mantiqiylikka

¹Qarang: Leech G., Svartvik J. *English Grammar in Use. A Communicative Grammar of English.*(3rd ed.) –London: Longman. 2002.

²Qarang: Rodney H., Geoffrey K. P. *The Cambridge Grammar of the English Language.* 2002. (44 b) (–1876 p.)

³Qarang: Rodney H., Geoffrey K. P. *O'sha asar.*– B. 1363.

⁴Qarang: Rodney H., Geoffrey K. P. *O'sha asar.*– B. 1364.

⁵Qarang: Aarts B. *English Syntax and Argumentation* (2nd edition). Palgrave Macmillan. 2001. – P. 17. (– 327 p.)

⁶Qarang: Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. *A Comprehensive Grammar of the English Language.*1985.– 372 p.

asoslangan muaqqat bog‘liqliklarni aks ettirishi xususidagi mulohazalarni mazkur asardagi e‘tiborli ma‘lumotlardan biri sifatida qayd etamiz¹.

M.A.K.Halliday funksional grammatika haqida mulohaza yuritish jarayonida murakkab qo‘shma gaplar xususida fikr bildirganida, bunday gaplar tilga oid tajriba va shaxsiy munosabat funksiyalarini ifoda etishini, ular so‘zlovchiga, ya‘ni nutq egasiga murakkab voqeliklarni bayon qilish imkonini berishini ta‘kidlaydi². Albatta, biz ham M.A.K.Hallidayning keltirilgan mulohazasini to‘g‘ri deb bilamiz. Chunki, har qanday so‘zlovchi ham sintaktik qurilishi murakkab bo‘lgan konstruksiyalarni o‘z nutqida qo‘llay olmaydi. Bunday qurilmalarni o‘z nutqida hosil qilish, ulardan samarali va maqsadli foydalanish uchun so‘zlovchida lisoniy shaxs sifatidagi ko‘plab fazilatlar shakllangan bo‘lishi lozim ekani isbot talab qilmaydi. Ushbu fikrimizning dalilini Noam Chomskiyning (Renowned linguist and syntactician) murakkab qo‘shma gaplardagi tuzilish (recursion) cheksiz miqdorda sintaktik tuzilmalar yaratish imkonini beradi,³ degan fikrlari zamirida kuzatish mumkin.

Qo‘shma gap ikki yoki undan ortiq gaplardan iborat bo‘lishi, bunda hosil bo‘lgan yangi gap, ya‘ni qo‘shma gap ikki yoki undan ortiq mustaqil qismlardan tarkib topishi hamda mazkur mustaqil qismlar orasidagi munosabat bog‘lovchi vosita orqali reallashishi haqidagi ilmiy qarashlar yuqorida keltirilgan va munosabat bildirilgan qarashlarning tub mohiyatini ko‘rsatadi. Ana shu mezonlar qo‘shma gaplarni ularning komponentlari munosabatlariga ko‘ra uchga bo‘lish mumkinligiga asos yaratadi. Bularni: teng komponentli qo‘shma gaplar, murakkab tuzilishli qo‘shma gaplar, aralash qo‘shma gap singari tiplarga ajratish mumkin⁴.

Ingliz va o‘zbek tillarida uch va undan ortiq teng bog‘langan soda sintaktik qurilmalardan hosil bo‘lgan murakkab qo‘shma gaplarning tarkibiy tuzilishi va semantic xususiyatlarida ma‘lum bir mutanosibliklar mavjud. Bu ulardagi tinish belgilarining qo‘llanishida, bog‘lovchi vositalarning ishlatilishida, shuningdek, fikr ifodasi bilan bog‘liq holda uslubiy tomonidan ham alohidalikka ega bo‘lishi mumkin. Ingliz tilshunoslarining teng bog‘lanishga yondashuvi turli tomondan bo‘lganini qayd etish lozim. Buni mazkur (coordination) bog‘lanish masalasiga *sintaktik, pragmatic va kognitiv* nuqtayi nazardan yondashilganida kuzatamiz. M.A.K.Halliday teng bog‘lanishni nutq tuzilmasidagi o‘zaro teng darajada, bir xil maqomda qabul qilingan harakatlar, g‘oyalar yoki voqealarni bir-biriga bog‘lash usuli deb tushunadi va o‘zining qarashlarida buni to‘la namoyon etadi⁵. Geoffrey Leech esa teng bog‘lanish gaplar soni bilan cheklanmasligini, so‘zlovchi *and* bog‘lovchisi orqali jumla qurilishini uzoq davom ettira olishi mumkinligini, bu esa tafakkurning moslashuvchanligini tasavvur etishga imkon berishini qayd etadi⁶. R.Quirk, S.Greenbaum, G.Leech, J.Svartviklarning fikricha, teng bog‘lanish sintaktik jihatdan teng darajadagi gaplarni bog‘lashning asosiy usulidir. Bog‘langan elementlar so‘zlar, birikmalar yoki gaplar bo‘lishi ham mumkin⁷. R.Hadleston va G.K.Pullum teng bog‘langan gaplar soni ehtiyojga qarab, cheksiz bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlaydi⁸.

¹Qarang: Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. O‘sha asar.

²Qarang: Halliday M.A.K., Matthiessen C. (2004). An introduction to functional grammar (3rd ed.). London: Edward Arnold.; Chomsky N. *Syntactic Structures*. The Hague: Mouton. 1957. – P. 38. (– 136 p.)

³Qarang: Chomsky N. (Renowned linguist and syntactician)

⁴Qarang: Potter M.C., Lombardi L. (1998). Syntactic priming in immediate recall of sentences. *Journal of memory and https://doi.org/10.1006/jmla.1997.2546*; Stevens-Long J., Schwarz J.L., Bliss D. (1976). The acquisition and generalization of compound sentence structure in an autistic child. *Behavior Therapy*, 7(3), 397-404. [https://doi.org/10.1016/S0005-7894\(76\)80070-6](https://doi.org/10.1016/S0005-7894(76)80070-6)

⁵Qarang: Halliday M.A.K. *An Introduction to Functional Grammar*, 1985. – P.387. ISBN 0713163658, 9780713163650

⁶Qarang: Leech G.N. *A Glossary of English Grammar* Edinburgh University Press Series Glossaries in linguistics. Edinburgh University Press, 2006. ISBN, 0748617299, 9780748617296.

⁷Qarang: Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. *A Comprehensive Grammar of the English Language* (2nd ed.). Pearson Longman. (1985).

⁸Qarang: Pullum G.K., Huddleston R. 2 Syntactic overview 43. Rodney Huddleston. 3 The verb 71. Rodney Huddleston. 4 The clause: complements 213. Rodney Huddleston. 23 pages

Xulosa

Hozirgi ingliz tilida qo'shma gap haqidagi sintaktik nazariyalarning lingvistik tavsifi ham jahonda shakllangan gap haqidagi nazariyalarga asoslandi. Muloqot va uning tarkibiy qismlarini o'rganish bugungi zamonaviy tilshunoslikning ham eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolayotgani o'zining ijtimoiy-lingvistik mohiyati bilan qimmatli ekani shubhasizdir. Muloqotda, nafaqat uzatilgan ma'lumot, balki shu orqali hosil qilingan reaksiya, undan kutilgan stimul ham muhim zarurat sanaladi.

Gap ingliz tilshunosligida so'zlardan tarkib topgan ma'no ifodalashga qodir majmua, fikr bayoni, subyekt va predikatni o'zi ichiga olgan hamda fikr ifodalovchi so'zlar guruhi sifatida qayd etiladi. **Ammo gaplarning ikki turga bo'linishini, bu bo'linishga asos bo'luvchi belgi-xususiyatlar ularning funksional va struktural tomonlarida ekanini ta'kidlagan tilshunoslar ham ingliz tilshunoslaridir. Funksional bo'linish o'zida muhim bo'lgan to'rtta kategoriyanı mujassam etishi: darak yoki bayon (declarative), so'roq (interrogative), buyruq (imperative) va undov (exclamatory) gaplarning ajratilishiga asosdir.**

Ingliz tilshunoslari qo'shma gaplar komponentlarini bog'lovchi vositalar haqida ko'plab ilmiy asoslarni keltirishgan bo'lsalar ham, ularning prosodik belgilar bilan punktuatsion belgilarning o'zaro farqlamaganliklari ham qayd etiladi. Bunda qo'shma gaplarning komponentlariaro bog'lovchi vositalar sirasiga nuqtali vergul singari tinish belgilarini ham kiritishlari mazkur masalaning izohtalab o'rinlari sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) **Chomsky N.** *Syntactic Structures*.—The Hague: Mouton. 1957. — P. 38. (– 136 p.)
- 2) **Leech G., Svartvik J.** *English Grammar in Use. A Communicative Grammar of English*.(3rd ed.) —London: Longman. 2002.
- 3) **Rodney H., Geoffrey K. P.** *The Cambridge Grammar of the English Language*. 2002. **(44 b)** (–1876 p.)
- 4) **Aarts B.** *English Syntax and Argumentation* (2nd edition). Palgrave Macmillan. 2001. — P. 17. (– 327 p.)
- 5) **Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J.** *A Comprehensive Grammar of the English Language*.1985.— 372 p.
- 6) **Halliday M.A.K., Matthiessen C.** (2004). *An introduction to functional grammar* (3rd ed.). London: Edward Arnold.; **Chomsky N.** *Syntactic Structures*. The Hague: Mouton. 1957. — P. 38. (– 136 p.)
- 7) **Leech G.N.** *A Glossary of English Grammar* Edinburgh University Press Series Glossaries in linguistics. Edinburgh University Press, 2006. ISBN, 0748617299, 9780748617296.
Pullum G.K., Huddleston R. 2 Syntactic overview 43. Rodney Huddleston. 3 The verb 71. Rodney Huddleston. 4 The clause: complements 213. Rodney Huddleston. 23 pages

MUNDARIJA

I SHO‘BA	
TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI	
X.Z.Xayrullayev. FONEMATIK VA MORFEMATIK SATH BIRLIKLARI.....	3
Т.А.Бушуй. ДЕРИВАЦИЯ В РУССКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ.....	8
B.N.Turniyazov. KAUZATOLOGIYANING TARIXIY ILDIZLARI.....	11
N.A.Ne‘matova. O‘ZBEK VA XITOIY TILLARIDA PREDIKATIV TUZILMALAR DERIVATSIYASI: SINTAKTIK, SEMANTIK VA FUNKSIONAL JIHATLAR.....	16
I.O.Beknazarova, D.U.Jo‘rayeva. BILVOSITA NOMLANISHNING TIL VA TAFAKKURDAGI O‘RNI.....	19
G.F.Ochilova. TIL VA NUTQ BIRLIKLARINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDA BELGILANISHI.....	23
M.M.Ziyadullayeva. TIL BIRLIKLARINING IERARXIK MUNOSABATI.....	25
II SHO‘BA	
SISTEM VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI	
X.Z.Xayrullayev. MORFEMA VA SO‘Z O‘RTASIDAGI POQ‘ANALI MUNOSABAT.	29
A.Turobov. “YOSH GRAMMATIKACHILAR” MAKTABI TADQIQI XUSUSIDA.....	34
A.B. Фалеева. ЭКСКУРС В ПРОБЛЕМУ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ И ФОНЕТИКО-ФОНОЛОГИЧЕСКОЙ УРОВНЕВОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ БРИТАНСКОГО ВАРИАНТА РАЗГОВОРНОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.....	37
D.Sh.Mamirova. OLMOSH SO‘Z TURKUMINING REKLAMA MATNLARIDA QO‘LLANILISHI.....	40
F.Nurmanov. QIPCHOQ LAHJASIDAGI YORDAMCHI SO‘ZLARNING O‘RNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA.....	42
S. Abdullayeva. MATERIAL STATUS OF PERSON IN ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROVERBS.....	45
S. Daminova. SO‘Z BIRIKMASINING PREDIKATIVLIKKA MUNOSABATI.....	47
G.B. Suyunova. THE HISTORICAL AND LINGUISTIC EVOLUTION OF THE ENGLISH VERB HAVE: FROM PROTO-INDO-EUROPEAN <i>KEH₂P</i>	49
D.Sohibova. HEADWEAR TERMS WITHIN ENGLISH AND UZBEK IDIOMATIC EXPRESSIONS.....	54
S.I. Anorqulov. O‘ZBEKISTON TOPONIMIK QATLAMLARINING MILLIY-MADANIY O‘ZIGA XOSLIGI.....	56
L.M.Sodiqov. NEMIS VA O‘ZBEK MAQOLLARINING STRUKTUR TALQINI.....	58
U.K.Gofurova. STRUKTUR TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA UNING SHAKLLANISHI.....	60
N.Y. Yodgorova. BADIY MATNLARDA SUBYEKTIV MODALLIKNI IFODALASHDA KICHRAYTIRISH-ERKALASH SHAKLLARINING O‘RNI.....	63
S.Sh. Nazarov. THE STRUCTURAL FEATURES OF MULTI-COMPONENT TERMS AND THE ROLE OF COMPOUND WORDS IN MODERN TERMINOLOGY.....	65
N.B. Bakhrilloyeva. LOGICO-SEMANTIC RELATIONS IN PARATAXIS IN ENGLISH LANGUAGE.....	67

N.K. Ruziyeva. FRANSUZ TILIDAGI SIYOSIY TERMINLARNI TARJIMASI RUS VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA.....	69
K.K. Sayfiyeva. FITONIM KOMPONENTLI O‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING MADANIYATLARARO QIYOSIY TADQIQI.....	72
Е.В.Фелева. АНГЛИЙСКИЕ НЕОЛОГИЗМЫ В СОВРЕМЕННОМ ДИСКУРСЕ.....	76
III SHO‘BA KOGNITIV, PRAGMATIK TILSHUNOSLIK MASALALARI	
Sh.J.Shomurodova DISKURS TAHLILIDA KOGNITIV-PRAGMATIK YONDASHUV: MA‘NO HOSIL BO‘LISH JARAYONLARI.....	80
Sh.N.Turniyazova ICHKI NUTQ XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	82
U.M.Rashidova FRAZELOGIZMLAR QADRIYAT IFODALOVCHI LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA.....	85
N.S.Sadinova SO‘Z O‘YINI YUMORISTIK DISKURS VOSITASI SIFATIDA.....	87
F.U.Orzibekov MULOQOTDAGI NUTQIY AKTLAR TAHLILI.....	90
K.S.Maxmudova BRITAN VA AMERIKA INGLIZ TILI O‘RTASIDAGI MADANIY FARQLAR.....	94
G.A.Salomova INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA REKLAMA QISQARTMALARIDAN FOYDALANISHNING PRAGMATIK JIHATI.....	96
F.D.Axmedjanova MARGARET DREBBL ASARLARIDA AYOL OBRAZINING LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK TALQINI.....	99
G.N.Raxmonova THE USE OF IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS IN NATIONAL, HISTORICAL, AND CULTURAL CONTEXTS.....	101
K.O‘.Shoyimova TERMIZ VA VINCHESTER TOPONIMLARINING METAFORIK VA LINGVOMADANIY TALQINI.....	103
Z.A.Xoliqova O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA RANG KONSEPTINING KOGNITIV-PRAGMATIK TALQINI.....	104
S.Shamsiyeva O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY QADRIYATLAR KONSEPTINING LINGVOMADANIY TAHLILI.....	108
Sh.Yusupova SUGGESTIV NUTQDA SOMATIZMLARNING QO‘LLANILISHI.....	110
M.Xasanova “KO‘NGIL” KOMPONENTLI POLISEMANTIK IBORALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI.....	112
IV SHO‘BA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MATN NAZARIYASI VA TA‘LIM USLUBIYATI MASALALARI	
N.A.Abdumannatova LINGVOFOLKLORISTIKA - TILSHUNOSLIKNING ALOHIDA YO‘NALISHI SIFATIDA.....	114
Sh.J.Shomurodova MATN LINGVISTIKASI VA INTERAKTIV METODLAR: TIL O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	116
D.A.Alibekova USLUB VA TILDAGI MILLIY-ESTETIK TAFOVUTLAR: GEKTOR MALO VA TEODOR DRAYZER ASARLARI ASOSIDA.....	118
F.D.Axmedjanova O‘TKIR HOSHIMOV VA MARGARET DREBBL ASARLARI NEGIZIDA AYOL KONSEPTINING QIYOSIY TAHLILI.....	120
O.S.Eshboyeva N.Boliboyeva SUN‘IY INTELLEKTNING TA‘LIM TIZIMIDAGI O‘RNI.....	123

O.S.Eshboyeva INTERPRETATION OF THE TRANSFORMATION PHENOMENON IN WORLD LINGUISTICS.....	126
M.A.Ibragimova SO‘Z-GAP VA TO‘LIQSIZ GAPLARNING SINTAKTIK TABIATINI QIYOSIY O‘RGANISH MASALALARI.....	129
M.A.Qo‘shbaqova MATNDA KOHEZIYA VA KOGERENSIYA ELEMENTLARINING KOMMUNIKATIV FUNKSIYASI.....	132
G.T.Rabbimova MILLIY TIL KORPUSI LINGVISTIK TA‘MINOTI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	136
S.Sotvoldiyeva AYOLLAR SHE‘RIYATIDA ANTROPOETONIMLAR.....	139
Д.А.Джуратулова СОВРЕМЕННЫЕ СТРАТЕГИИ ВНЕДРЕНИЯ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ЗАДАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.....	147
Z.Abdirazakova MORFEMIK TAHLILNING O‘QUV-USLUBIY MATERIALLARDA QO‘LLANILISHI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV.....	149
S.Y.Nasimova FUNCTIONAL PROPERTIES OF DIMINUTIVES AND EXAMPLES FROM ENGLISH LITERATURES.....	152
O.Xudayberdiyeva YANGI LEKSIK BIRLIKLARNI SAMARALI O‘RGATISH.....	155
F.P. Sadinov O‘QUVCHI TAFAKKURINING SHAKLLANISHIDA BAYONNING O‘RNI.....	157
E.Qodirova XITOY TILINI O‘QITISHDA INSON HIS-TUYG‘ULARINI IFODALOVCHI FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING TAHLILI.....	159
Ch.Sh.Xudaynazarova BADIY MATNDA MA‘NODOSH VA ZID MA‘NOLI SO‘ZLARNING USLUBIY IMKONIYATLARI (NORMUROD NORQOBILOV QISSALARI MISOLIDA).....	162
N.D.Xujanova TALABALARDA RAQAMLI SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	165
R.U.No‘monjonova THE EFFECTIVENESS OF TECHNOLOGY-ASSISTED LEARNING IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	168
V SHO‘BA	
TIL VA ADABIYOT NAZARIYASI	
Э.Р.Мусурманов ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ ШЕЛКОВОГО ПУТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ХАМСА» АЛИШЕРА НАВОИ.....	171
H.A.Asanova POSHSHOXOJA IJODINING TILI BA BAYON QILISH USLUBI.....	173
D.Sh.Mamirova SON SO‘Z TURKUMINING REKLAMA MATNLARIDA QO‘LLANILISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	176
I.M.Pardayeva SHARQ EPIK AN‘ANALARIDA ISKANDAR OBRAZI: NAVOIY TALQININING O‘ZIGA XOSLIGI.....	178
Z.N.Eliboyeva ERTAK JANRI VA ULARNING AYTUVCHILARI.....	183
T.S.Eshboyeva ALISHER NAVOIY G‘AZALLARINING FRANSUZ TILIGA TARJIMALARI TAHLILI	185
G.Y.Holikulova, Z.U.Xayrullayeva QARLUQ VA QIPCHOQ LAHJALARINING LEKSIK QIYOSLANISHI.....	189
M.A.Xudayberdiyeva IJTIMOY TARMOQLAR ORQALI AXBOROT TARQATISH VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	191

F.B.Komilova AMIR TEMUR SIYMOSINING SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDA AKS ETISHI	194
M.Sh.Saloxiddinov TELICITY AND ITS RELATION TO ACHIEVEMENTS.....	197
S.Rasulova SATIRA VA YUMOR – KULGI ORTIDAGI HAQIQATNING BADIY IFODASI.....	199
F.R.Rashidova PSIXOLOGIK PORTRETNING BADIY ADABIYOTDA TADQIQI....	201
D.M.Kodirova MAQOLLARNI O'RGANISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	104
G.Y.Holikulova, S.F.Nasriyeva QIPCHOQ LAHJASINING O'ZIGA XOS LEKSIK XUSUSIYATLARI.....	206
S.X.Rajabboyeva G'ARBIY YEVROPANING NAVOIY BILAN TANISHISH TARIXI.	208
D.Bekmirzayeva “KENTERBERI HIKOYALARI” DA TURFA TABAQALAR: CHOSERNING IJTIMOYIY PORTRETI.....	209
I.Yo.Beknazarova , D.U.Jo'rayeva BILVOSITA NOMLANISHNING MANTIQUIY-SEMANTIK MUAMMOLARI.....	212
S.A.Jabborova The Linguistic Features of Medical Terminology: An Analytical Perspective.....	216
M.A.Xalova MARINA SVETAYEVA IJODIDA LIRIK QAHRAMON.....	220
M.F.Zayniddinov ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA KINOYANING IJTIMOYIY TA'SIRI.....	222
N.O'.Kobilov SOTSIOLOGIYASTIKANING TIL VA JAMIYATDAGI O'RNI.....	224
N.F.Ochilova THE IMPORTANCE OF REALIS AND IRREALIS CONSTRUCTIONS..	226
F.Axtamova ADABIY XRESTOMATIYALARNING BADIY ADABIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	228
D.Bekmirzayeva “KENTERBERI HIKOYALARI” DA TURFA TABAQALAR: CHOSERNING IJTIMOYIY PORTRETI.....	230
M.F.Tursunmuratova BUGUNGI KUNDA TILSHUNOSLIK VA TIL SOHASIGA MUNOSABAT	232
S.A.Jabborova THE LINGUISTIC FEATURES OF MEDICAL TERMINOLOGY: AN ANALYTICAL PERSPECTIVE	234
Sh.A.Mirzayev. KOREYS GASTRONOMIK TERMINLARINING SO'Z YASALISHI XUSUSIYATLARI	237
Azizova Dildora. INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR	239

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI
Samarqand shahri, 2025-yil, 16-oktabr

Muharrir: G.Rahimova
Musahhih: Z.Usmanova
Tex.muharrir: H.Amirdinov

Nashriyot tasdiqnomasi:
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655
Bosmaxona tasdiqnomasi:
№ 8376-525f-572d-f37b-0fd6-3529-7957

2023-yil 16-mayda bosishga ruxsat etildi:
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}.
“Times” garniturası. Raqamli bosma usulda bosildi.
Hisob-nashriyot t.: 26,0. Shartli b.t. 19,0.
Adadi 10 nusxa. Buyurtma №16/05.

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi.
Manzil: Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93.